
ICHKI ARIQLAR KOVLANMOQDA

Ayni kunlarda tumandagi ichki ariqlarni tozalash, kavlash va qirg'og'iga qalamcha o'rnatish ishlari olib borilmoqda.

Xususan, Buvayda irrigasiya bo'limi xodimlari tomonidan Yangiqadam kanalining 14 kilometri kovlanishi ko'zda tutilgan. Ayni kungacha 5 kilometr ariq kovlandi.

Shuningdek, Qo'rg'onobod MMTP hududidagi "Jasmina-Shabbona" fermer xo'jaligi rahbari tashabbusi bilan 2.1 kilometr ariq kovlanishi rejalashtirilgan. Ayni kunlarda ariq tozalash ishlari boshlab yuborildi. Shu kungacha 400 metr ariq kovlanib, qirg'oqlariga qalamchalar o'tqazildi.

Tumandagi "Otabek-Durbek" va "Karimjon hoji-777" fermer xo'jaliklarida ham ichki ariqlarni kovlash va qalamcha ekish ishlari jadallik bilan olib borilmoqda.

2022-12-02 11:42:40